

15-Mart, 2025-yil

**KADRALAR FAOLIYATINI BAHOLASH VA RAG‘BATLANTIRISH
TIZIMINING OLIY TA’LIMDAGI O’RNI**

Azimova Dildora Hayitbayevna

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

E-mail: azdil9393@gmail.com

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — yuqori malakali, mas’uliyatlari va innovatsion fikrlashga ega pedagogik kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning mehnatini adolatli baholash hamda rag‘batlantirish orqali ta’lim sifatini yuksaltirishdir. Kadrlar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimi oliy ta’lim muassasalarida nafaqat tashkiliy boshqaruv vositasi, balki o‘qituvchining kasbiy rivoji va motivatsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Amaldagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, faoliyat samaradorligini baholashda yagona yondashuvlar va aniq mezonlarning yetishmasligi, ayrim hollarda rag‘batlantirishning shakliy yoki subyektiv tus olishi kadrlarning ishga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish, uni xalqaro tajriba va milliy ta’lim siyosati asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur tadqiqot ishida oliy ta’lim muassasalarida kadrlar faoliyatini baholash mezonlari, mavjud tizimning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, rag‘batlantirishning samarali shakllari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, oliy ta’limda inson resurslarini boshqarish sifatini oshirishga xizmat qiluvchi takliflar ilgari suriladi.

Oliy ta’lim muassasalarida kadrlar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimi ta’lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot samaradorligini ta’minalash hamda pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim orqali o‘qituvchilarining o‘quv, ilmiy va tashkiliy faoliyatlarini baholanadi, bu esa ularning mehnatiga adolatli munosabat bildirish va rag‘batlantirish imkonini beradi.

Dunyo tajribasida oliy ta’lim muassasalarida kadrlar faoliyatini baholash turli mezonlar asosida amalga oshiriladi. Masalan, AQShning ko‘plab universitetlarida o‘qituvchilarining ilmiy nashrlari soni, o‘quv jarayonidagi ishtiroti, grant loyihalaridagi faolligi va talabalar tomonidan berilgan baholar inobatga olinadi. Bunday baholash natijalari o‘qituvchilarining lavozim o‘sishi, ish haqi miqdori va boshqa rag‘batlantirish choralariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ayrim universitetlarda o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish maqsadida maxsus treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil etiladi.

O‘zbekistonda ham oliy ta’lim tizimida kadrlar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarorida oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish, ularning mehnatini baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish masalalari ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu

15-Mart, 2025-yil

hujjatda kadrlar faoliyatini baholashda ularning ilmiy va pedagogik faoliyati, o‘quv-uslubiy ishlaridagi yutuqlari hamda innovatsion loyihalardagi ishtiroki hisobga olinishi belgilangan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida kadrlar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

- Baholash mezonlarini aniqlashtirish va standartlashtirish. O‘qituvchilarning faoliyatini baholashda aniq va shaffof mezonlarni ishlab chiqish, bu mezonlarni barcha oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash zarur.

- Rag‘batlantirish tizimini diversifikatsiya qilish. Faoliyat natijalariga ko‘ra moddiy rag‘batlantirish bilan bir qatorda, nomoddiy rag‘batlantirish usullarini ham joriy etish, masalan, faxriy unvonlar berish, malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish.

- Baholash jarayonida talabalar fikrini inobatga olish. Talabalarning o‘qituvchilar haqidagi fikr-mulohazalarini tizimli ravishda yig‘ish va tahlil qilish, bu ma’lumotlarni baholash jarayonida qo‘llash.

- Xalqaro tajribani o‘rganish va moslashtirish. Rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim tizimidagi kadrlar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tajribasini o‘rganish, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirish.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali baholash tizimlari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning motivatsiyasini oshiradi va ta’lim jarayonining sifatini yaxshilaydi . O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kadrlar faoliyatini baholashda xalqaro tajribalardan foydalanish muhimdir. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya va Finlandiya kabi mamlakatlarda pedagoglarning faoliyati ko‘p qirrali mezonlar asosida baholanadi, bu esa o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi . Shu bilan birga, baholash natijalariga asoslangan rag‘batlantirish tizimlari o‘qituvchilarning ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmonida oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar doirasida pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularning faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish masalalari ko‘tarilgan . Ushbu hujjat asosida oliy ta’lim muassasalarida kadrlar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini yanada rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida kadrlar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga va ta’lim tizimining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, milliy baholash va rag‘batlantirish tizimini yaratish va uni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

15-Mart, 2025-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sun qarori (2017-yil 20-aprel)
<https://lex.uz/acts/3249746>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sun Farmoni (2022-yil 28-yanvar) <https://lex.uz/docs/5841063>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-sun
<https://lex.uz/docs/-4545884?ONDATE=09.10.2019>

